

UBAYDULLOXON – “SAXOVAT VA SHIJOATDA DAVR YAGONASI”

Yulduz Jo'rayeva,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17374969>

Annotatsiya. Ushbu tezisda o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan, “saxovat va shijoatda davr yagonasi” hisoblangan Ubaydulloxonning hayot yo'li va ijodiy faoliyati xususida so'z yuritiladi. Ta'kidlash lozimki, Ubaydulloxonning Buxoro tarixida faqatgina shoh sifatida emas, balki shoir sifatida ham faoliyat yuritgani uning shoh va shoirlik faoliyatini maromida olib borganligidan dalolat beradi. Ijodkor qoldirgan badiiy meros esa bugungi kunda adabiyotimizning ulkan xazinasi sifatida e'tirof etilmoqda.

Kalit so'zlar: Ubaydulloxon, shoh va shoir, ijodiy meros, taxallus, badiiy yo'sin, yondashuv, adabiyot.

Аннотация. В данной диссертации рассматриваются жизнь и творчество Убайдуллы-хана, занимающего уникальное место в истории узбекской литературы и считающегося «единственным в своей эпохе по щедрости и мужеству». Следует отметить, что тот факт, что Убайдулла-хан действовал в истории Бухары не только как правитель, но и как поэт, свидетельствует о гармоничном сочетании его царской и поэтической деятельности. Творческое наследие, оставленное этим творцом, сегодня признано великим сокровищем нашей литературы.

Ключевые слова: Убайдулла-хан, правитель и поэт, творческое наследие, псевдоним, художественный стиль, подход, литература.

Abstract. This thesis discusses the life and creative work of Ubaydullah Khan, who holds a unique place in the history of Uzbek literature and is considered "the only one of his era in generosity and courage." It should be noted that the fact that Ubaydullah Khan acted not only as a king in the history of Bukhara, but also as a poet indicates that he carried out his royal and poetic activities in harmony. The artistic heritage left by the creator is recognized today as a great treasure of our literature.

Keywords: Ubaydullah Khan, king and poet, creative heritage, pseudonym, artistic style, approach, literature.

Barchamizga ma'lumki, o'zbek adabiyoti – ulkan tarix, ulkan ijodiy xazina manbai. Unda ijod qilgan har bir yozuvchi, shoir bor-ku, adabiyot vakillari tomonidan alohida e'tibor-u e'tirofda. Ana shunday ijodkorlardan biri Ubaydulloxon bo'lib, bizning ushbu tezisimiz ham bevosita Ubaydulloxonning hayot yo'li va ijodiy faoliyati bilan aloqadordir. Shoir xususida ko'plab xorijiy manbalarda: “Ubaydxon ibn Mahmud Sulton Shayboniynonning jiyani bo'lib, saxovat va shijoatda davr yagonasi edi¹”, kabi fikrlar ilgari suriladi. Bu esa uning nafaqat shohlik, balki shoirlik faoliyati uning jism-joniga jo bo'lib ketganligidan dalolatdir.

Asl ismi Abulg'oziy Ubaydulloh Bahodirxon ibn Mahmud Sulton ibn Shoh Budog' Sulton ibn Abulxayrxon 1486-yilda Xorazmning Vazir shahri yaqinidagi Tirsak mavzesida tavallud topgan bo'lib, Buxoro xoni sifatida faoliyat ko'rsatgan. Shayboniylar sulolasidan. Muhammad Shayboniynonning jiyani, Mahmud Sultonning o'g'li. Unga Xoja Ubaydulloh Ahror tomonidan ism berilgan. Dastlabki ta'limini otasining piri Mavlono Muhammad Qozidan olgan ijodkor hayotining keyingi yillarida o'z davrining mashhur ulamolari Fazlulloh ibn Ro'zbehon,

¹ Фазлаллах ибн Рузбихан Исфакани, Михманнамеи Бухара. Москва, 1976. – 78-бет.

Maxdumi A'zam, Mavlono Muhammad Azizon, Mavlono Xoja Muhammad Sadr va boshqalardan ham ilmiy saboq oladi.

Ubaydullaxon "Ubaydiy", "Qul Ubaydiy", "Ubaydulloh" taxalluslari ostida **o'zbek, fors va arab** tillarida ijodiy faoliyat yuritgan. Ubaydulloxon o'zining ijtimoiy ahvolotini o'zining she'riy asarlariga singdira olgan.

Uning bolalik chog'lari Buxoroda o'tgan bo'lib, u oilada yolg'iz farzand hisoblangan. Yolg'izlik uning sinovi ekanligini shoir o'z she'rlarida-da bayon qiladi:

*El, ko'plukni ko'zga ne ilgaysiz,
Yolg'iz kishidin ham nega kesilgaysiz.
Yolg'iz deb oni kesilgaysiz ondinkim,
Yolg'izning erur yori Xudo, bilgaysiz².*

Ya'ni elga murojaat bilan boshlangan ushbu she'rda shoir ko'p insonlarga "bag'rikenglik qilib", yolg'izlardan yuz burishini ming afsus bilan bayon etadi, yolg'iz bo'lganlar bilan aloqani uzishlaridan nadomat bilan yozg'iradi, ammo Ubaydulloxon "Yolg'izning yori – Alloh" ekanligini alohida ta'kidlab, yolg'iz insonlarning doimo Alloh taolo tomonidan qo'llab-quvvatlanishini qayd etadi. Ushbu mazmun anglashilgan bu she'rda shoir folklorizmdan ham unumli foydalangan, ya'ni misrada qo'llangan "Yolg'izning erur yori Xudo" misrasida shoir ijodidan o'rin olgan xalq og'zaki ijodi namunalariga yaqqol misol bo'la oladi.

Shoir ijodida toj-u taxtga nisbatan havasmandlik ruhi ham ko'zga tashlanadi, bu shoirning quyidagi misralarida ham aks etgan:

*Yo Rab, manga baxtu taxt ila davlat ber,
A'dog'a balo-yu, mehnatu hasrat ber.
Lutfi karamu inoyating birla mudom,
Xorazmda fathu, zafaru, nusrat ber³.*

Darhaqiqat, yuqorida keltirilgan parchada shoir Alloh taolodan unga baxt-u davlat berishini, dushmanga balo, mehnat-u hasrat berishini, ammo shohlik maqomi ila Xorazmga yurishida unga fath-u, zafar-u, nusrat berishini iltijo qilib so'raydi. Ha, bu Ubaydulloxonga xos shohlik "humor"i, ijodkorlik "maqom"i edi. U ikkisini birlashtirib, o'zbek adabiyotida o'ziga xos yo'l yarata oldi.

Shoir ishq mavzusini ham qalamga olishni unutmagan, bu esa shoirning quyidagi she'rida yaqqol aks etgan:

*Yorsiz jonim erur afg'onu men ozurda hol,
Notavon ko'nglum xarob, ahvoldadur dildorsiz.*

*Ishrat asbobin muhayyo aylangiz, ey do'stlar,
Navbahor ayyoridur, bo'lmang mayu gulzorsiz⁴.*

Ya'ni oshiq o'z yorisiz abgor ahvoldaki, bu uning joniga ozor bermoqda, notavon ko'ngli esa xarob ahvoldadirki, sababi, uning dildori yo'q. Keyingi misralar do'stlarga murojaat shaklida bayon etilgan bo'lib, ularga qarata garchi ishrat asbobini muhayyo qilsalar-da, biroq may-u gulzorsiz uning foydasi yo'qligini shoirlik ahvoloti ila yozg'iradi – bu shoirlikka xos mavzu, shoirlikka xos oh-u nola, umuman, shoirlik maqomotidagi ahvol bayonoti edi.

² Qul Ubaydiy. Vafo qilsang. – Toshkent: Yozuvchi, 2000. – 71-bet.

³ Qul Ubaydiy. Ko'rsatilgan manba. – 71-bet.

⁴ Qul Ubaydiy. Ko'rsatilgan manba. – 56-bet.

Ubaydulloxon hikmatnavis ijodkor hamdir. U Yassaviy ijodiga monand ravishda go'zal hikmatlar bitgan:

*Chun nosivallah ko'yida istab meni topmas kishi,
Bas, o'zga yerda istangiz, ul ko'ydin ketgum mano.
Solik topa olmas nishon mendin talab vodiysida;
Ey Qul Ubaydiy, jon kibi istay ani, yettum mano⁵.*

Shoirning ushbu misrasi Yassaviy hikmatlariga mos, unda aks etgan ma'no esa quyidagicha: kimki meni ko'yida istab izlasaki, aslo topmas, meni qayerdan izlasalar hamki aslo topmas, hatto solik ham meni talab vodiysida, mening talabim esa bitta – Alloh vasli – men ham uni jon kabi istayki, yetarman.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa bo'lgan Ubaydiy nafaqat shohlik, balki shoirlik maqomida ham muvaffaqiyatga erisha olgan ijodkor edi. Uning ijod namunalarini o'rganish tarix, adabiyot fanlari uyg'unligida amalga oshirilib, uning ilmiy merosi barchamiz uchun birdek muhim va qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev M. Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati. Filol. fan dok. (DSc) ... diss. avtoref. – Toshkent: Fan, 2000. – 39 b.
2. Haydarova N. Maqol va hikmatli so'zlarni folklor janri sifatida tasniflashning mohiyati va tamoyillari // Текст научной статьи по специальности "Языкознание и литературоведение". – Toshkent, 2022. – B. 187-191.
3. Hayitmatov A. Adabiy merosimiz ufqlari. Toshkent: O'qituvchi, 1997. – 189 b.
4. Hayitmetov A. Farog'ati bor, do'stlar, gadolig'ni. – Toshkent: Sharq yulduzi, 1991. – №-10. – 67 b.
5. Hayitmetov A. Merosimizni o'rganamiz. – Toshkent: Sharq yulduzi, 1991. – B. 190.
6. Mannopov I., Inomov S. Ubaydiy she'riyatida ruboiy janrining roli va ahamiyati // "Sharq renessansi: ta'lim, tabiat va ijtimoiy tadqiqotlar" jurnali. – Toshkent: Inscience, 2022. – B. 245-253.
7. Mirzayev T. Milliy istiqlol mafkurasi va o'zbek adabiyotshunosligi // O'zbek tili va adabiyoti, -№3. – Toshkent, 1994. –B 165-169.

⁵ Qul Ubaydiy. Ko'rsatilgan manba. – 71-bet.